

O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA’NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING ROLI

Botirova O'g'iloy Mahmayusuf qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 4- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Jo'rayev Feruz

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida oilaning o‘rni, uning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ota-onalarning ma’naviy yetukligi, milliy qadriyatlarni bolalar ongiga singdirishdagi mas’uliyati hamda zamonaviy sharoitda oilaviy tarbiyani takomillashtirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, axloq, milliy qadriyat, oila, tarbiya, o‘quvchi, ma’rifat, mas’uliyat.

Kirish

Oila — jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, shaxsning shakllanishida beqiyos o‘ringa ega. Aynan oilada insonning birlamchi ma’naviy, axloqiy va estetik qarashlari shakllanadi. Ota-onalar farzandga nafaqat jismoniy hayot beradi, balki unga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar orqali ruhiy dunyo baxsh etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Milliy qadriyatlar — bu bizning o‘zligimiz, g‘ururimiz va mustaqil taraqqiyotimizning poydevoridir.” Demak, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash eng avvalo

oiladan boshlanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi va oilaning hamkorligi bolalar ma'naviyatini yuksaltirishning eng samarali yo'lidir.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, til va diniga hurmati, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, halollik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. O'quvchi shaxsini ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda qadriyatlar yo'naltiruvchi mezon vazifasini bajaradi.

Xalqimizning "Farzand tarbiyasi — millat kelajagi" degan dono naqli ham bejiz emas. Bolaning ilk qadami, dastlabki so'zi, axloqiy mezonlari aynan oilada shakllanadi. Shu bois oila muhitining sog'lomligi — jamiyat ma'naviyatining sog'lomligidir. Oila — bolaga mehr, e'tibor, g'amxo'rlik beruvchi eng ishonchli muhit. Ota-onaning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasida eng samarali omildir. Bola kattalarning harakatiga qarab o'zini tutadi, ularning nutqi, munosabati, qadriyatlariga ergashadi.

Ota-onaning milliy qadriyatlarga sadoqati, masalan, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehnatni qadrlash, halollik, vatanparvarlik, diniy bag'rikenglik kabi xislatlar farzand tarbiyasining tayanch ustunlariga aylanadi. Shuningdek, milliy marosimlar — to'ylar, sunnat, Navro'z, mustaqillik bayramlari kabi tadbirlar o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli axborot oqimlariga duch kelmoqda. Shu sababli ota-onalarning pedagogik savodxonligi va ma'naviy yetukligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab bilan oila o'rtasidagi mustahkam hamkorlik — tarbiyaning poydevori. Ota-onalar o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lishi, bolalarning darsdan tashqari faoliyatlarini qo'llab-quvvatlashi, ularga milliy adabiyot, tarix, san'at va xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishi zarur. Masalan, ota-onalar bolalar bilan birgalikda maqol-topishmoq o'ynasa, ertaklar tinglasa, milliy qadriyatlar tabiiy tarzda farzand ongi va qalbiga singadi.

Adabiyotlar tahlili

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari qadim zamonlardan buyon Sharq va G'arb mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, Sharq pedagogik tafakkurida inson kamoloti va axloqiy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida komil insonni tarbiyalash masalasini davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan. Uning fikricha, insonda ezgulik, adolat va ma'rifat fazilatlarini tarbiya orqali shakllanadi. Abu Ali ibn Sino oilaviy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Mutafakkir bolaning tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati va namunasi muhim ekanligini qayd etgan. U oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish bolaning barkamol bo'lib voyaga yetishining muhim sharti ekanligini ko'rsatgan.

Alisher Navoiy asarlarida ham ma'naviyat va axloq masalalari markaziy o'rin egallaydi. U yoshlarni halollik, kamtarlik, saxovat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Navoiyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. U o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasi" deb baholaydi. Bu fikr tarbiyaning inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini yaqqol ifodalaydi.

Zamonaviy pedagog olimlar ham oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini keng tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlarida milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, oilaviy munosabatlarning bola rivojlanishiga ta'siri hamda ma'naviy tarbiyaning samarali metodlari yoritilgan.

O'zbekistonlik pedagog olimi O. Musurmonova oilani shaxs kamolotining muhim omili sifatida baholab, unda shakllanadigan ma'naviy muhitning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda ijtimoiy faollik, ma'naviy barqarorlik va milliy g'ururni rivojlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda globallasuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish zarurligi alohida ta'kidlanmoqda. Chunki milliy qadriyatlar shaxsning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish pedagogik jihatdan samarali va dolzarb yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Oila va maktab hamkorligida quyidagi yo'nalishlar samarali natija beradi:

1. Milliy bayram va qadriyatlarni o'quvchi ishtirokida nishonlash;
2. Ota-onalar uchun "Ma'naviy tarbiya saboqlari" seminarlarini tashkil etish;
3. Mahalla, maktab va oila uchligi asosida tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish;
4. Bolalarda milliy o'zlik, g'urur va vatanparvarlikni kuchaytiruvchi suhbatlar tashkil etish.

Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston — ma'naviyatli jamiyat" degan tamoyili ham aynan oilada boshlanadigan tarbiyaviy islohotlarga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, oila — o'quvchining ma'naviy va axloqiy shakllanishida beqiyos o'ringa ega. Farzand tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi, milliy qadriyatlarga sodiqligi va mehr-muruvvati asosiy mezondir. Maktab va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlik orqali biz yosh avlodni milliy g'ururli, ma'naviy barkamol, komil insonlar etib tarbiyalay olamiz. Bu esa Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" asari. – T.: O'zbekiston, 2021.

2. "Oila kodeksi" – T.: Adolat, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Xalq pedagogikasi asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2015.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
7. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Ibn Sino A.A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981.
9. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.10
10. Internet manbalari: www.lex.uz, www.president.uz